

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайлловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOIY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон угли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI Olish.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY Hujjatlar taxlili	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 03 January 2026**Accepted:** 17 January 2026**Published:** 30 January 2026*Article / Original Paper***STYLISTIC DEVICES IN ENGLISH AND UZBEK TEXTS****Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi,**

Senior teacher,

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article presents a comparative analysis of stylistic devices used in English and Uzbek literary texts. The main objective of the study is to identify the functional and aesthetic roles of such stylistic units as metaphor, simile, epithet, personification, hyperbole, and litotes in literary discourse, as well as to examine their national and cultural characteristics. The research employs a комплекс approach based on descriptive, comparative-analytical, and contextual analysis methods.

Keywords: stylistics, literary text, stylistic device, metaphor, simile, comparative analysis.

INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI**Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi,**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Katta o'qituvchisi

E-mail: nozigulduvlaeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek badiiy matnlarida qo'llaniladigan stilistik tasviriy vositalarni qiyosiy tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi metafora, o'xshatish, epiteta, personifikatsiya, giperbola va litota kabi stilistik birliklarning badiiy nutqdagi funksional va estetik rolini aniqlash, shuningdek, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Tadqiqot jarayonida deskriptiv, qiyosiy-tahliliy va kontekstual tahlil metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Kalit so'zlar: stilistika, badiiy matn, stilistik tasviriy vosita, metafora, o'xshatish, qiyosiy tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N24>

Kirish. Badiiy adabiyot tili oddiy kundalik nutqdan o'zining obrazlilik, emotsional-ekspressivligi hamda estetik ta'sir kuchi bilan tubdan farqlanadi. Badiiy matnning asosiy vazifasi axborot yetkazishdan ko'ra ko'proq o'quvchiga estetik zavq bag'ishlash va emotsional ta'sir ko'rsatishdan iboratdir [4; 12–13-b.]. Aynan mana shu vazifa stilistik tasviriy vositalar orqali amalga oshiriladi. Metafora, o'xshatish, epiteta, jonlantirish kabi vositalar badiiy nutqni jonlantirib, muallif g'oyasining yorqin va ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi.

Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, grammatik va struktur jihatdan sezilarli farqlarga ega. Shunga qaramay, badiiy nutqda qo'llaniladigan stilistik tasviriy vositalar ko'p hollarda umumiy semantik va funksional xususiyatlarga ega. P. Simpsonning ta'kidlashicha, stilistik vositalar universalligi bilan birga, har bir til va madaniyatda o'ziga xos estetik talqin kasb etadi [8; 19–21-b.]. Masalan, metafora yoki jonlantirish har ikki adabiy

an'anada uchrasa-da, ularning obraz manbalari va ma'no nozikliklari milliy mentalitet bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek mumtoz adabiyotida stilistik tasviriy vositalar ko'pincha tasavvufiy-falsafiy mazmun bilan uyg'unlashgan bo'lsa, ingliz klassik adabiyotida individual kechinmalar, dramatik holatlar va ijtimoiy ziddiyatlar tasviri ustuvorlik qiladi. Bu holat stilistik vositalarning nafaqat lingvistik, balki madaniy va tarixiy hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, stilistik tasviriy vositalarni ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy o'rganish tarjimashunoslik, chet tilini o'qitish metodikasi hamda badiiy matn tahlilida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy tarjimada stilistik ekvivalentlik masalasi dolzarb bo'lib, ushbu tadqiqot natijalari amaliy jihatdan ham ahamiyatlidir.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida stilistik tasviriy vositalarning nazariy va amaliy xususiyatlarini chuqur o'rganish maqsadida bir nechta o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, deskriptiv metod asosida stilistika sohasiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, stilistik tasviriy vositalarning ta'riflari, turlari hamda ularning badiiy nutqdagi umumiy funksiyalari izchil yoritildi. Ushbu metod stilistik birliklarning nazariy asoslarini aniqlash va ularni tizimli ravishda bayon etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod keng qo'llanildi. Mazkur metod orqali ingliz va o'zbek tillaridagi stilistik tasviriy vositalar o'zaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Bundan tashqari, kontekstual tahlil metodi yordamida stilistik birliklarning badiiy matn tarkibidagi funksional vazifalari o'rganildi.

Natijalar. Tadqiqot materiali sifatida ingliz adabiyotining mashhur vakillari — Uilyam Shekspir, Charlz Dikens va Jorj Gordon Bayronning klassik badiiy asarlaridan tanlab olingan parchalar xizmat qildi. O'zbek adabiyoti namunalari sifatida esa Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon hamda Oybek ijodidan olingan matnlar tahlilga tortildi. Tanlangan asarlar badiiy tilning boyligi, stilistik rang-barangligi va adabiy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, metafora ingliz va o'zbek badiiy matnlarida eng faol va semantik jihatdan eng boy stilistik tasviriy vositalardan biri hisoblanadi. Metafora orqali muallif abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar yordamida ifodalaydi hamda o'quvchining tasavvur doirasini kengaytiradi. G. Lakoff va M. Johnson metaforani faqat badiiy bezak emas, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmi sifatida baholaydilar [3; 5–6-b.]. Ingliz adabiyotida Uilyam Shekspir metaforadan keng va serqirra foydalangan. Masalan, "As You Like It" asaridagi mashhur monologda u shunday yozadi:

*"All the world's a stage,
And all the men and women merely players;
They have their exits and their entrances,
And one man in his time plays many parts..."* [7; 87–88-b.]

(*"Butun dunyo sahna,
Erkaklar ham, ayollar ham faqat o'yinchilardir.
Ularning chiqish yo'llari va kirish yo'llari bor.
Bir odam o'z davrida ko'p rollarni o'ynaydi..."*)

Mazkur parchada inson hayoti teatr sahnasiga qiyoslanib, tugʻilish va oʻlim “kirish” va “chiqish” metaforalari orqali ifodalanadi. Bu metafora hayotning oʻtkinchiligi va inson taqdirining rollarga boʻlinganligini chuqur falsafiy maʼnoda ochib beradi.

Ingliz romantik adabiyotining yirik vakili Jorj Gordon Bayron metaforani shaxsiy kechinmalar va ijtimoiy norozilikni ifodalashda faol qoʻllagan. Uning “Childe Harold’s Pilgrimage” asarida uchraydigan quyidagi satrlar bunga misol boʻla oladi:

*“Sorrow is knowledge: they who know the most
Must mourn the deepest o’er the fatal truth.”* [1; 42-b.]

(“Gʻam — bu bilimdir: eng koʻp bilganlar
Eng chuqur qaygʻururlar ayanchli haqiqat ustida.”)

Mazkur parchada *sorrow* (gʻam) va *knowledge* (bilim) oʻrtasida metaforik bogʻliqlik oʻrnatiladi. Muallif bilimni ruhiy iztirob manbai sifatida talqin qiladi. Bu metafora insonning hayotiy tajribasi ortgan sari uning ruhiy ogʻirligi ham ortib borishini ifodalaydi. Bayron metaforasi individual ruhiy iztirobni umumiy falsafiy xulosaga aylantirib, romantik adabiyotga xos ichki drammatizmni kuchaytiradi.

Shuningdek, Charlz Dikkensning “Bleak House” romanida jamiyatdagi adolatsizlik va huquqiy tizim tanqidi metafora orqali beriladi: *“This is the Court of Chancery... which has its decaying houses and its blighted lands in every shire.”* [2; 15–16-b.] (“Bu Chancery sudidir... uning har bir tumanida chirigan uylar va hosilsiz yerlar mavjud.”) Bu yerda sud tizimi “chiriyotgan uylar” va “hosilsiz yerlar” orqali metaforik tarzda tasvirlanadi. Metafora jamiyatdagi byurokratik tizimning inson hayotiga salbiy taʼsirini ochib beradi. Dikkens metaforani ijtimoiy tanqid quroli sifatida qoʻllab, badiiy obraz orqali muhim ijtimoiy muammoni yoritadi.

Oʻzbek mumtoz adabiyotida metafora koʻpincha axloqiy, falsafiy va tasavvufiy mazmun bilan uygʻunlashadi. Oʻzbek adabiyotida Alisher Navoiy metaforani tasavvufiy va ruhiy mazmun bilan uygʻunlashtiradi. Uning “Xamsa” asarida uchraydigan quyidagi satrlar bunga misol boʻla oladi:

*“Koʻngil bir dengizdur mavj urar pinhon,
Dard gavhari unda boʻlgʻay beomon.”* [5; 134-b.]

Bu misralarda inson qalbi cheksiz dengiz sifatida talqin qilinib, undagi iztiroblar va kechinmalar “gavhar” obrazi orqali tasvirlanadi. Metafora bu yerda nafaqat obraz yaratadi, balki falsafiy umumlashtirish vazifasini ham bajaradi.

Alisher Navoiyning zamondoshi va izdoshi boʻlgan Bobur ijodida metafora inson taqdiri va hayot oʻtkinchiligini ifodalashda muhim oʻrin tutadi. “Boburnoma”da uchraydigan quyidagi fikr bunga dalil boʻla oladi: *“Bu dunyo karvonsaroydur, bir kelib-ketar manzildur.”* Mazkur jumlada dunyo karvonsaroyga qiyoslanadi. Metafora orqali inson hayotining muvaqqatligi va oʻtkinchiligi ifodalanadi. Karvonsaroy obrazi Sharq madaniyatiga xos boʻlib, bu metafora milliy mentalitet bilan uzviy bogʻlangan holda shakllangan.

XX asr oʻzbek adabiyotida esa Oybek metaforani tarixiy jarayonlar va ruhiy kechinmalarni tasvirlashda mohirona qoʻllaydi. Uning “Navoiy” romanida shoir ruhiy holati quyidagi metafora orqali ifodalanadi: *“Shoirning koʻngli alangaga oʻxshar, ichida tinimsiz yonar edi.”* [10; 256-b.] Bu yerda qalb “alanga” obraziga tenglashtiriladi. Metafora ijodkorning ichki

iztirobi, ruhiy zo'riqishi va ijodiy ehtirosini bir vaqtning o'zida ifodalaydi. Ushbu metafora badiiy obrazlilikni kuchaytirish bilan birga, qahramonning psixologik holatini chuqur ochib beradi.

O'xshatish stilistik vosita sifatida obrazni yanada aniqroq va tushunarliroq qilishga xizmat qiladi. Metaforadan farqli ravishda, unda qiyoslash ochiq ifodalanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'xshatishlar har ikki adabiy an'anada emotsional holatlarni tasvirlashda keng qo'llaniladi.

Charlz Dikens "David Copperfield" romanida bosh qahramonning ruhiy holatini quyidagicha ifodalaydi: *"I stood there trembling, as if I had been suddenly turned to stone, and my heart beat like a frightened bird."* ("Men xuddi birdan toshga aylanib qolgandek qaltirab turardim, yuragim qo'rqqan qushdek dukillardi.") Bu parchada qahramonning qo'rquvi va hayajoni ketma-ket o'xshatishlar orqali jonli va ta'sirchan tasvirlanadi. Romantik adabiyotning yirik vakili Uilyam Vordsvort (William Wordsworth) o'xshatishlardan tabiat va inson ruhiy holatini tasvirlashda keng foydalangan. Masalan, "Lines Composed a Few Miles above Tintern Abbey" she'rida quyidagi qator uchraydi:

*"The mind of man is like a mountain lake,
Reflecting all the beauty that surrounds it."* [11; 54-b.]
("Inson ongi tog' ko'li kabi, atrofdagi barcha go'zalliklarni aks ettiradi.")

Bu yerda inson ruhiy holati tog' ko'li bilan taqqoslanadi. O'xshatish orqali muallif qalbning tinchligi, atrof tabiatni idrok etish qobiliyati va ichki uyg'unligini vizual va sezgir tarzda ifodalaydi. Bu o'xshatish psixologik holatni badiiy tasvirlash vositasi sifatida ishlatiladi.

O'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida shunday o'xshatish uchraydi: *"Otabekning yuragi qafasga tushgan qushdek betinim urinar, ko'ngli esa allaqanday g'ashlik bilan to'lib borardi."* [6; 112-b.] Bu yerda inson ichki kechinmasi qush obrazi orqali ifodalanib, o'xshatish qahramon ruhiy holatini o'quvchiga yaqqol his ettiradi. Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, o'zbek va ingliz adabiyotida ichki kechinmalar, ayniqsa, yurakni tahlil holatini ifodalashda qush obrazidan foydalanilgan. Shuningdek, Cho'lponning "Kecha va Kunduz" asarida uchraydigan satrlar bunga yorqin misol bo'la oladi: *"Ko'ngli shabada singari silkinar, ichida barcha dard va tashvishlarni olib yurar edi."* [9; 78-b.] Bu o'xshatishda inson qalbi shabada bilan taqqoslanadi. O'xshatish qahramonning ichki kechinmalarini jonli va sezgir tarzda ifodalaydi: uning ruhiy holati doimo silkinib, ichki dardlar bilan to'la ekanini o'quvchi his qilishi mumkin. Shu bilan birga, metaforadan farqli o'laroq, bu o'xshatish ochiq qiyoslash orqali ifodalanadi, ya'ni qalbning silkinishi va shabada harakati o'rtasidagi o'xshashlik aniq ko'rsatiladi.

Muhokama. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, stilistik tasviriy vositalar ingliz va o'zbek badiiy adabiyotida umumiy estetik vazifani bajaradi, ya'ni matnning obrazlilik va ta'sirchanligini oshiradi. Biroq ularning mazmuniy yuklamasi va obraz manbalari milliy-madaniy tafakkur bilan bevosita bog'liq.

O'zbek adabiyotida stilistik vositalar ko'pincha tabiat, ruhiy kechinma va falsafiy umumlashmalar bilan uyg'unlashsa, ingliz adabiyotida shaxsiy drama, ijtimoiy muammolar va individual kechinmalarni ifodalash ustuvorlik qiladi. Bu holat tarjima jarayonida stilistik moslikni ta'minlash masalasini dolzarb qiladi. Shu sababli, tarjimashunoslikda stilistik vositalarni so'zma-so'z emas, balki funksional va estetik ekvivalentlar orqali yetkazish muhim

hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvning ilmiy asoslanganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, stilistik tasviriy vositalar ingliz va o'zbek badiiy matnlarining mazmuniy va estetik tuzilmasida muhim o'rin egallaydi. Ular badiiy nutqning obrazlilikini, emotsional-ekspressiv ta'sirini kuchaytirib, muallifning individual ijodiy uslubini namoyon etishda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Metafora, o'xshatish, epitet, personifikatsiya, giperbola va litota kabi stilistik birliklar badiiy matnni jonlantiribgina qolmay, o'quvchining voqelikni obrazli idrok etishiga ham imkon yaratadi.

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek adabiy an'analari o'rtasida stilistik tasviriy vositalarning qo'llanishida muayyan umumiyliklar mavjudligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ularning semantik yuklamasi, obraz manbalari va estetik talqini milliy-madaniy omillar bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi. O'zbek badiiy adabiyotida stilistik vositalar ko'proq falsafiy mushohada, tabiat manzaralari va ruhiy kechinmalarni ifodalashga yo'naltirilgan bo'lsa, ingliz adabiyotida individualizm, dramatizm va ijtimoiy jarayonlarni yoritish ustuvorlik qiladi.

Tadqiqot natijalari stilistika va adabiyotshunoslik bilan bir qatorda tarjimashunoslik sohasida ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy tarjimada stilistik ekvivalentlikni ta'minlash masalasi ushbu tadqiqot asosida yanada aniqroq yondashuvni talab etadi. Stilistik vositalarni funksional jihatdan mos holda yetkazish tarjimaning badiiy qiymatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Byron, G. G. Childe Harold's Pilgrimage. — London: Penguin Classics, 2005.
2. Dickens, C. Bleak House. — Oxford: Oxford University Press, 2002.
3. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Leech, G. A Linguistic Guide to English Poetry. — London: Longman, 1969.
5. Navoiy, A. Xamsa. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
6. Qodiriy, A. O'tkan kunlar. — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2014.
7. Shakespeare, W. As You Like It. — Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
8. Simpson, P. Stylistics: A Resource Book for Students. — London: Routledge, 2004.
9. Cho'lpon. Kecha va kunduz. — Toshkent: Sharq, 2006
10. Oybek. Navoiy (roman). — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2008.
11. Wordsworth, W. Selected Poems. — London: Wordsworth Editions, 1994.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).